

22/01/2020 96542

SHARTNOMA № 2022/81
(loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish)

«15» ИЮНЬ 2022й

Янгийул тумани

"MODERN ROAD PROJECT" MCHJ (keyingi o'rinlarda – «Pudratchi») nomidan nizom asosida ish yurituvchi direktor M.Ergashev bir tomondan va Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani Obodonlashtirish boshqarmasi nomidan ustav asosida ish yurituvchi boshkarma boshligi K.Karadjanov (keyingi o'rinlarda – «Buyurtmachi») ikkinchi tomondan, birgalikda "Taraflar", alohida esa "Taraf" deb ataluvchilar ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI:

1.1. «Pudratchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'iga binoan ushbu shartnomaning 1.2-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarish va ularning natijasini «Buyurtmachi»ga topshirish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa Ishlarning natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. «Pudratchi» quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini oladi: Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani Yuksalish MFY xududidagi ko'chalarni asfaltlash uchun sifatli loyiha-smeta va ekspertiza xujjatlarini ishlab chiqish, keyingi o'rinlarda "Ishlar" deb yuritiladi.

1.3. «Pudratchi» Ishlarni o'z kuchi va asbob-uskunasi bilan bajaradi.

1.4. Ishlarni bajarish muddatlari:

- ishlarning boshlanishi: - 2022 yil "15" ИЮНЬ ;
- ishlarning tugatilishi: - 2022 yil "30" ИЮНЬ ;

"Pudratchi" Ishlarni muddatidan oldin bajarish huquqiga ega.

1.5. Ishlar «Buyurtmachi» yoki uning vakolatli vakili tomonidan tegishli dalolatnoma (F-3 va F-5) tekshirib imzolanganidan so'ng bajarilgan hisoblanadi.

II. SHARTNOMA NARXI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

2.1. Ushbu shartnomaning narxi quyidagilardan iborat:

2.2. Ushbu shartnoma umumiy narxi QQS hisobga olgan holda joriy narxi **9 500 000 (to'qqiz million besh yuz ming) sumni** tashkil etadi.

2.3. «Buyurtmachi» «Pudratchi»ga oldindan to'lov sifatida shartnoma qiymatining 30 foizi **2 850 000 (ikki million sakkiz yuz ellik ming) so'mni** pudrat shartnomasi imzolangan kundan 3(uch) bank ish kuni davomida «Pudratchi» xisob rakamiga kuchirib beradi.

2.4. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga shartnoma narxining to'lanishi mablag'larini «Pudratchi»ning ushbu shartnomada ko'rsatilgan hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

III. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. «Pudratchi» quyidagilarga majbur:

3.1.1. Ishlarni lozim darajada sifatli bajarish;

3.1.2. Ishlarni ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddatlarda bajarish;

3.1.3. Ishlarning natijasini «Buyurtmachi»ga topshirish;

3.1.4. Ishlarni bajarish davrida texnika va mexnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

3.1.5. «Buyurtmachi» «Pudratchi» tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda «Pudratchi» o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarish;

3.1.6. Agar «Buyurtmachi» ishlarning borishi va sifatidan qoniqmasa, u holda yozma ravishda «Pudratchi»ni xabardor qiladi. «Pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 (uch) kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

-agar «Pudratchi» Ishlarni bajarish jarayonida Ishlar natijasining sifati yomonlashuviga olib kelgan ushbu shartnoma shartlaridan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, «Buyurtmachi»ning talabiga ko'ra barcha aniqlangan kamchiliklarni 10 (o'n) kun mobaynida bepul tuzatish;

3.1.7. Ishlarni shaxsan o'zi bajarish, ishchilarni ishchi kiyim bosh bilan ta'minlash, uziga berkitilgan hududni qo'riqlash, qurilish mollarini asrash va maxsulotlarini belgilangan me'yorda qurilish normalariga amal qilgan holda chiqindisiz ishlatishga majburdir.

3.2. «Pudratchi» quyidagilarga haqli:

3.2.1. «Buyurtmachi» ushbu shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan narxni to'lash majburiyatini bajarmagan taqdirda Ishlarning natijasini ushlab qolish.

3.3. «Buyurtmachi» quyidagilarga majbur:

3.3.1. «Pudratchi»dan Ishlar tugaganligi to'g'risida xabarnoma olganidan so'ng o'zaro kelishilgan muddat mobaynida yoki ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng Ishlarning natijalarini

ko'rib chiqish va qabul qilish, Ishlarning natijasini yomonlashtiradigan darajada shartnomadan chekinish yoki boshqa kamchiliklar aniqlangan taqdirda esa bu to'g'risida «Pudratchi»ga darhol ma'lum qilish;

3.3.2. Ishlarga ushbu shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan narx bo'yicha, Ishlarning natijalari qabul qilib olingan paytdan boshlab keyingi ishni natijasi qabul qilingunga qadar haq to'lash.

3.4. «Buyurtmachi» quyidagilarga haqli:

3.4.1. Istalgan vaqtda «Pudratchi»ning faoliyatiga aralashmagan holda Bajarilayotgan Ishlarning borishi va sifatini tekshirish;

3.4.2. «Buyurtmachi»ga Ishlarning natijasini topshirishdan oldin istalgan vaqtda, «Buyurtmachi»ning shartnomani bajarishdan bosh tortishi to'g'risidagi xabarnoma olinguncha bajarilgan Ishlarning bir qismiga mutanosib ravishda belgilangan narxni «Pudratchi»ga to'lagan holda ushbu shartnomani bajarishdan bosh tortish. Bunda «Buyurtmachi»ning «Pudratchi»ga shuningdek bajarilgan Ishlar uchun to'langan narxning bir qismi va barcha Ishlar majmui uchun belgilangan narx o'rtasidagi farq doirasida ushbu shartnomani tugatish natijasida yetkazilgan zararni undirib olishi shart.

IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. «Pudratchi» ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan Ishlarni bajarish muddatini buzganligi uchun «Buyurtmachi»ga ushbu shartnoma shartlari bo'yicha haq summasining 0,4 % miqdorida jarima to'laydi.

4.1. «Buyurtmachi» ushbu shartnomaning II bo'limida ko'rsatilgan to'lov muddatini (F-3 va F-5) qabul qilingandan so'ng buzganligi uchun «Pudratchi»ga bajarilgan ishi bo'yicha haq summasining 0,4 % miqdorida jarima to'laydi.

4.2. Taraflarning ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi fuqarolik va xo'jalik qonun hujjatlarining normalariga muvofiq qo'llaniladi.

4.3. Neustoyka to'lash Taraflarni o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

V. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Ushbu shartnomani bajarish chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar Taraflar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda Taraflar kelishmovchiliklarni sudgacha tartibga solishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tamoilini amalga oshirganlaridan so'ng ularni ko'rib chiqish uchun tegishli iktisodiy sudlarga topshiradilar.

VI. YaKUNLOVCHI QOIDALAR

6.1. Ushbu shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda tuzilgan hamda Taraflarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiydir. Ushbu shartnomaga ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

6.2. Ushbu shartnoma har bir Taraf uchun bittadan ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa bir xil kuchga ega.

6.3. Shartnoma tomonlar tomonidan imzolanganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi xamda «31» dekabr 2022 yilgacha amalda buladi

VII. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAS'ULIYATI.

7.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

7.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

7.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

7.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

7.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

7.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-5.5-bandlarida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir etilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

7.7. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

VIII. TARAFLARNING MANZILLARI, BOSHQA REKVIZITLARI

«Buyurtmachi»

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani
Obodonlashtirish boshkarmasi
III/p: 401722860272597065200110005
STIR: 206105483
MFO: 00014
Mark.bank.Tosh.sh.Bosh boshqarmasi
XKKM Gaznachilik
23402000300100001010
STIR: 201122919

Obodonlashtirish boshqarma

Raxbar:  K.Караджанов
(vakolatli shaxs F.I.Sh. va imzosi)

«Pudratchi»

"MODERN ROAD PROJECT" MCHJ

Manzil: Toshkent shaxar Mirobod tumani
Xaydar Aliyeva ko'chasi 202-uy
h/s: 2020800905025085001
ATIB "Ipoteka bank"
Toshkent shaxar filial
MFO: 00419
INN: 302 525 436
OKED: 71110

Raxbar:  M.Ergashev





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент вилояти

Б. 4233100

Toshkent viloyati Toshkent sh., 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-43-56, Faks: +998 71
244-26-05, e-mail: vilekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: NORBAYEV DUSMURROT ELOMONOVICH
Sana: 23-06-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 48287

Ob'ekt nomi «Тошкент вилояти Янгийул тумани Юксалиш МФЙ Гулистон кўчасининг 740 метр қисмини асфальт қилиш»

Buyurtmachi - Управление благоустройства Янгиюльского района.
Bosh loyihachi - "MODERN ROAD PROJECT" МЧЖ
Litsenziya №АЛ-000910 от 19-06-2020г.
Moliyalashtirish manbai - Средства местного бюджета.
Bosh pudratchi - Определяется по результатам тендерных торгов
Qurilish turi Текущий ремонт
Murojaat raqami: № 47050

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. Постановление Президента РУз № ПК-5250 от 22.09.2021г.
- 1.2. Задание на расчет стоимостей по объекту, утвержденное заказчиком Управлением благоустройства Янгиюльского района, согласованное проектной организацией ООО «MODERN ROAD PROJECT» от 2022г.
- 1.3. Письмо Управления благоустройства Янгиюльского района №1/3-4/4 от 16.06.2022г.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Дефектный акт и исполнительная схема по объекту, утверждённые заказчиком Управлением благоустройства Янгиюльского района, согласованные МФЙ Юксалиш и проектной организацией от 2022г.
- 2.2. Расчет стоимости работ в текущих ценах в сумме 389429,247тыс.сум с НДС и без затрат заказчика.
-ведомости потребных ресурсов и локальные ресурсные ведомости.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

- 3.1. Представленной сметной документацией и утвержденным дефектным актом предусматриваются следующие работы:
-протяженность улиц – 961 п.м.
-устройство подстилающих слоев из ГПС;

-устройство выравнивающих слоев из щебня толщ.3см;

-розлив битума;

-устройство покрытий из плотной мелкозернистой асфальтобетонной смеси толщ.5см и др.

3.2. Расчетная сметная документация составлена в соответствии с Постановлениями КМ РУз. от 11.06.2003 г. №261 «О переходе на договорные текущие цены при реализации инвестиционных проектов», от 12.05.2004 г. №226 «О внесении изменений в некоторые решения Правительства Уз», ШНК 4.01.16-09 «Правила по определению стоимости строительства в договорных текущих ценах».

В основе расчета использован ресурсный метод.

Ресурсные ведомости составлены с использованием действующей в республике сметно-нормативной базы.

Стоимости основных строительных материалов, конструкций, изделий и оборудования уточнено в соответствии с каталогом текущих цен, разрабатываемого ежеквартально, цен на биржах и ярмарках строительных материалов, оптово-отпускных цен заводов-изготовителей.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Задание на расчет стоимостей по объекту и дефектный акт утверждены заказчиком Управлением благоустройства Янгиюльского района.

6. Ekspertiza natijalari.

5.1.В процессе рассмотрения в документацию внесены изменения и дополнения.

5.2. По результатам экспертного рассмотрения стоимость работ в текущих ценах составила в сумме 389429,247тыс.сум с НДС и без затрат заказчика.

Отмечается, что в сметном расчете уровень прочих затрат подрядной организации принят в размере 19,0%.

5.3. При производстве демонтажных работ, стоимость возврата материалов определить совместно с заказчиком и подрядчиком.

5.4. Документация представлена на экспертное рассмотрение без замечаний заказчика.

5.5. Заказчику, до утверждения, необходимо согласовать документацию со всеми заинтересованными организациями в установленном порядке.

7. Xulosalar.

6.1. Расчет стоимости сметной документации в текущих ценах по объекту **«Тошкент вилояти Янгийул тумани Юксалиш МФЙ Гулистон кўчасининг 740 метр қисмини асфальт қилиш»**, с учетом результатов экспертизы рекомендуется для дальнейшего рассмотрения и утверждения со стоимостью в сумме 389429,247тыс.сум с НДС и без затрат заказчика.

6.2.В соответствии с «Временным положением о порядке определения стоимости строительства объектов в договорных текущих ценах», утвержденным Постановлением Кабинета Министров РУ. от 11.06.2003 г. №261 и №46 от 31.01.2022г., стоимость работ принимает заказчик с учетом требований действующих нормативных документов и др.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyi haning turi: Shartnoma.
2. Loyi haning nomi: Loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha Xizmat ko'rsatish shartnomasi. "MODERN ROAD PROJECT" (STIR: 302525436) MCHJ hamda Yangiyo'l tumani obodonlashtirish boshqarmasi o'rtasida shartnoma raqami №2022/81-sonli, umumiy summasi 9 500 000 (to'qqiz million besh yuz ming) so'm bo'lgan Yangiyo'l tumani "Yuksalish" MFY hududidagi ko'chalarni asfaltlash uchun sifatli loyiha-smeta va ekspertiza hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha shartnoma loyihasi.
3. Loyiha taqdim etuvchi to'grisida ma'lumot: Shartnoma loyihasi "MODERN ROAD PROJECT" (STIR: 302525436) MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan. Yangiyo'l tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 15.06.2022 yilda kiritilgan.
4. Ushbu shartnoma loyihasi fuqarolik kodeksi hamda 1998 yil 29 avgustdagi 670-I-sonli "Xojalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi. Shuningdek, loyihaga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqilganda, Obodonlashtirish boshqarmasi xarid komissiyasining O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi O'RQ-684-sonli "DAVLAT XARIDLARI TO'G'RISIDA"gi Qonunining 62-moddasi talabiga ko'ra o'tkazilgan tanlashni o'tkazish natijalariga asosan tuzilgan bayonnomasi 08.06.2022 yildagi № 96542 lot orqali "MODERN ROAD PROJECT" (STIR: 302525436) MCHJ g'olib deb topilgan.

Yuqorida keltirilganlarga hamda huquqiy ekspertiza natijalariga asosan,

XULOSA:

Birinchidan, Loyiha va unga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib chiqilgandan so'ng amaldagi qonun hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi;

Ikkinchidan, Obodonlashtirish boshqarmasi xarid komissiyasining faoliyatining tashkil qilinishi hamda baholash mezonlarining to'g'ri o'tkazilganligi hamda komissiya a'zolarining elektron ovoz berishdagi ishtiroki to'grisidagi masalalar yuzasidan shaxsiy mas'uliyat xarid komissiyasi raisi va a'zolarida ekanligi

tasvirlanadi,



Bundan tashqari uchinchidan, loyiha taqdim etuvchiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-sonli "Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori talablari asosida G'aznachilik bo'limidan majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish lozimligi, ushbu shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng kuchga ega bo'lishi to'g'risida ma'lum qilinadi.

Izoh: Shartnomaning moliyaviy jihati bilan bog'liq masalalar huquqiy ekspertiza predmetiga kirmaydi.

Yangiyo'l tumani adliya bo'limi yuridik
xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



I.Roziqov
15.06.2022 yil

Faint, illegible handwritten text, likely bleed-through from the reverse side of the page.